



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF COMPETITION AND MONOPOLY IN THE ECONOMY

Tuychieva Nodira¹

Baxrom Xaydarov²

Quziboyev Zafar³

Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan

KEYWORDS

competition, main functions of competition, price, dumping price, monopoly, monopolistic competition

ABSTRACT

This article refers to the development of the country's economy through competition, the role of competition in the economy and its tasks, how a monopoly is created, its negative and positive sides, methods of combating monopoly or measures to create monopolistic competition.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.7381536

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Assistant, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, Jizzakh, Uzbekistan

² Assistant, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, Jizzakh, Uzbekistan

³ Student, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, Jizzakh, Uzbekistan

RAQOBAT VA MONOPOLIYANING IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

KALIT SO'ZLAR:

raqobat, raqobatning asosiy vazifalari, narx, demping narx, monopoliya, monopolistik raqobat

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada raqobat orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, raqobatning iqtisodiyotdagi o'rni va uning vazifalar, monopoliya qanday vujudga kelishi, uning salbiy va ijobjiy tomonlari, monopoliyaga qarshi kurashish usullari yoki monopolistik raqobatga yuzaga keltirish choralarini nazarda tutadi.

Bozor mexanizmining asosiy tarkibiy qismlaridan biri raqobat hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti o'zining yetuklik darajasi va rivojlanish xususiyatlaridan qat'iy nazar raqobatning mavjud bo'lishini taqozo etadi. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov raqobatning bozor iqtisodiyotidagi ahamiyatini ko'rsatib, «Raqobat bo'lmasa, bozor iqtisodiyotini barpo etib bo'lmaydi. Raqobat – bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir», deb ta'kidlaydi.

Raqobat – bozor sub'ektlari iqtisodiy manfaatlarining to`qnashuvidan iborat bo'lib, ular o`rtasidagi yuqori foyda va ko`proq naflilikka ega bo`lish uchun kurashni anglatadi. Hozirgi bozor iqtisodiyotida raqobatning quyidagi asosiy vazifalarini ajratib ko`rsatish mumkin:

- 1) tartibga solish vazifasi;
- 2) resurslarni joylashtirish vazifasi;
- 3) innovatsion vazifa;
- 4) moslashtirish vazifasi;
- 5) taqsimlash vazifasi;
- 6) nazorat qilish vazifasi.

Raqobatning har bir vazifasi bozor iqtisodiyotida muhim vazifalarni bajaradi. Ishlab chiqarivchi, sotuvchi va iste'molchi, xaridorlar o`rtasidagi iqtisodiyot jarayonlarni tartibga soladi. Shu bilan birga raqobat kurashining ikki usuli farqlanadi: narx vositasidagi raqobat va narxsiz raqobat. Narx — bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar va xizmatlarning ijtimoiy qiymati va ijtimoiy nafliligining puldag'i ifodasıdir. Narx vositasida raqobatlashish usullaridan biri – demping narxlarni qo'llashdir. Bunda milliy ishlab chiqaruvchilar o`zlarining tovarlarini boshqa mamlakatlarga ichki bozordagi narxlardan, ayrim hollarda tannarxidan ham past bo'lgan narxlarda sotadi.

Monopoliyalar vujudga kelishining moddiy asosi ishlab chiqarishning to`planishi hisoblanadi. Ishlab chiqarishning to`planishi ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda to`planishini namoyon etadi. Ishlab chiqarish to`planishining asosiy sababi bo`lib olinayotgan foyda hajmining ko`payishi hisoblanadi. Monopoliyaning vujudga kelishi sababi va tavsifiga ko`ra: tabiiy monopoliya,

legal monopoliya, sun'iy monopoliya.

Monopoliyaning iqtisodiy taraqqiyotga ta'sir qiluvchi ijobiy va salbiy tomoni mavjud. Uning ijobiy tomoni asosan quyidagi ikkita jihat orqali namoyon bo'ladi. Birinchidan, u ma'lum tarmoqlarda nisbatan samarali amal qiladi va xarajatlarning tejalishiga olib keladi. Ikkinchidan, monopolist bo'limgan, mayda, raqobatlashuvchi soha korxonalariga nisbatan monopolistik korxonalarda ishlab chiqarishga ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy etish uchun ko'proq rag'bat va imkoniyat mavjud bo'ladi. Monopoliyaning salbiy tomoni sifatida quyidagi jihatlarni ko'rsatish mumkin:

- 1) resurslarning oqilona taqsimlanmasligi.
- 2) daromadlardagi tengsizlikning kuchayishi.
- 3) iqtisodiy turg'unlik va fan-texnika taraqqiyotining sekinlashuvi.
- 4) iqtisodiyotda demokratik harakatlarning to'sib qo'yilishi.

Bundan ko'rnatadiki, monopolistik faoliyat iqtisodiy rivojlanishiga ancha jiddiy ta'sir ko'rsatishi, taraqqiyot yo'liga g`ov bo'lishi ham mumkin. Shunga ko'ra, bugungi kunda deyarli barcha mamlakatlar iqtisodiyotida monopoliyalarni davlat tomonidan tartibga solish chora-tadbirlari qo'llanilib, bu monopoliyaga qarshi siyosat deb ataladi. Davlatning monopoliyaga qarshi siyosati asosini monopoliyaga qarshi qonunchilik tashkil etib, u turli mamlakatlarda turli darajada rivojlangan bo'ladi. O'zbekistonda davlatning raqobatchilik muhitini shakllantirishga qaratilgan siyosatida xususiylashtirish, davlat mulki hisobidan mulkchilikning boshqa shakllarini vujudga keltirish asosiy o'rinn tutadi. Xususiylashtirish natijasida, birinchidan, mulk o'z egalari qo'liga topshirilsa, ikkinchidan, ko'p ukladli iqtisodiyot va raqobatchilik muhitini vujudga keltiradi. Monopoliyani tartibga solish – miqdoran hisoblash imkoniyati kam bo'lgan juda murakkab jarayondir. O'zbekistonda davlatning monopoliyaga qarshi chora-tadbirlari nafaqat monopoliyani cheklash, balki monopoliyadan chiqarish jarayoni bilan uzviy ravishda olib borilmoqda. Juda ko'plab tarmoqlarda xukmron mavqega ega bo'lgan korxonalar (ular yagona korxona-tarmoq sifatida ish yuritishar edi) xususiylashtirilib, mustaqil korxonalarga aylantirildi va natijada tarmoqda raqobat muhiti shakllantirildi. Respublikada raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda amalga oshirilayotgan barcha ishlar bozor iqtisodiyotini tarkib toptirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan monopoliyaga qarshi siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri – bu monopolist-korxonalarining tovar bozoridagi egallab turgan ustunlik mavqeini suiste'mol qilishning oldini olish va unga yo'l qo'ymaslik bo'yicha nazorat olib borishdan iboratdir. Aynan shu maqsadda monopolist-korxonalar Davlat reestri yuritilib, unga muayyan tarmoqda ustun mavqega ega bo'lgan korxonalar kiritiladi. Davlatning monopoliyaga qarshi qonunchiligi raqobatlashuvchi sub'ektlar ishchanligini susaytirmaydigan darajada yetarlicha moslashuvchan bo'lishi darkor. Monopolistik raqobatni yuzaga keltirish orqali ham monopoliyaga qarshi kurash mumkin. Bunda raqobat asosida monopoliyaning narx, ishlab chiqarish, sotish va boshqa jihatlardan ustunlik qilishiga qarshi kurashish mumkin bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki iqtisodiyotda raqobat va monopoliya o'zaro

uzviy qarama-qarshilikka duch keladi. Raqobatni rivojlantirish orqali monopoliyaga barham berish mumkin bo`lsa, monopolianing vujudga kelishiga esa raqobatning mavjud emasligi sababchi bo`ladi. Ishlab chiqarishda, sotishda va xizmat ko`rsatishda monopoliya mavjud bo`lishi bevosita narxning ko`tarilishiga, mahsulotning sifatini tushub ketishiga, resurslardan unumli foydalanmaslikka va boshqa omillarga tasir o`tkazadi. Shuning uchun monopoliyalar o`rtasida monopolistik raqobatni yuzaga keltirish, ko`plab xususiy korxonalarni tashkil etishga ko`maklashish, davlat tomonidan tadbirkorlarga turli imtiyozlar berish, mavjud monopoliyalarga davlat tomonidan tovar va xizmatlar narxlarning yuqori va quyi chegaralariga cheklovlarining o`rnatish, monopoliyaga qarshi qonunchilik orqali monopoliyalarni qisqartirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Itbach, F. (2008) The complex roles of universities in the period of globalization. Higher Education in the World 3,pp. 5–14. URL: https://www.researchgate.net/publication/277128834_The_complex_roles_of_universities_in_the_period_of_globalization/stat
2. Baregheh, A., Rowley, J., & Sambrook, S. (2009) "Towards a multidisciplinary definition of innovation". Management Decision. 47(8): 1323–1339. URL: https://www.researchgate.net/publication/41104662_Towards_a_Multidisciplinary_Definition_of_Inno
3. To'ychiyeva N. Elektron Ta 'lim Tizimining Afzalliklari Va Kamchiliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 40-41.
4. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta 'lim metodologiyasi rivojlantirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 29-31.
5. To'ychiyeva N. Elektron Ta 'lim Tizimining Afzalliklari Va Kamchiliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 40-41.
6. Норбеков X., Туйчиева Н. Формирование конкурентных преимуществ компаний //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 589-592.
7. Nodira T., Maxfirat T. FORMATION AND DEVELOPMENT OF PRONUNCIATION IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN SCHOOL STUDENTS //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – T. 1. – №. 1.
8. Nodira T., Maxfirat T. MODERN METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGE PRONUNCIATION TO PRIMARY SCHOOL PUPILS IS BASED ON THE JAPANESE EXPERIENCE //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 205-208.
9. Nodira T., Rashid X. PROBLEMS OF INNOVATION MANAGEMENT IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 155-164.

10. Nodira T. PRIORITIES FOR ORGANIZING ENTREPRENEURIAL ACTIVITIES IN THE AGRICULTURAL SECTOR //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 192-199.
11. Nodira T. INNOVATIVE MANAGEMENT IN THE DEVELOPMENT OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 346-351.
12. To'ychiyeva, N. (2022). AGRAR SOHADA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(4), 53-56. Retrieved from <http://researchedu.org/index.php/cf/article/view/625>
13. To'ychiyeva , N. (2022). AGRAR TARMOQDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(4), 3-6. Retrieved from <http://researchedu.org/index.php/cf/article/view/624>
14. To'ychiyeva N. THE MAIN CHARACTERISTICS OF INNOVATION MANAGEMENT IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 103-105.
15. Nodira T., Maxfirat T. FOREIGN LANGUAGE PRONUNCIATION IN GRADES 1-4» //РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ. – С. 1133.
16. Akramovich N. A. THE PRIORITY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE AGRICULTURAL EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 185-191.
17. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta 'lim metodologiyasi rivojlanirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 29-31.
18. Nizametdinov A. A. OLIY TA'LIM TIZIMINING AGRAR SOHASIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR QO'LLASH USTUVORLIGI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1 (6), 58-60. – 2022.
19. Nizametdinov A. A. OLIY TA'LIM TIZIMIDA AGRAR SOHANING USTUVORLIGI UNDA INNOVATSIYALAR LARNING QULLANISHI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1 (6), 96-98. – 2022.